

## QO'SHRABOT TUMANIDAGI BA'ZI MIKROTOPONIMLAR ETIMOLOGIYASI

**Nurmuhammedov Bahodir Shakarboyevich**

*Samarqand davlat chet tillar instituti Iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** yabg'u, qo'ng'iroq, qabila, mikrooykonim, mikro, mikrozooponim, mikrogidronim, mikrotopogidronim, mikroantropogidronim.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo'shrabot tumani Qiyqim qishlog'ida uchraydigan mikrotoponimlar va to'plangan materiallarni ilmiy manbalarga tayangan holda tavsiflashga harakat qilingan. Avvambor, qishloqdagi etnotoponimlarga to'xtalgan holda, qabila-urug'larning muayyan joyga kelib joylashuvi keyingi toponimlar yaralishining bosh omili ekanligi aniqlangan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

G'arbiy turklarning oliy hukmronlik unvonlaridan biri *yobg'u* deb atalgan. Urxun-Enasoy yodgorliklarida ham "*yabg'u*" termini uchraydi. Qadimgi turklarda bu unvon qabila boshlig'i yoki qabilalar ittifoqi boshlig'iga berilgan. Markaziy Osiyaning qadimgi xalqlaridan bo'lgan qarluq xonlari ham *yobg'u* deb atalgan (Begaliyev, Turobov, 2015:6).

1. *Jobi to'p* o'zbek xalqining 92 bovli qabilalari tarkibida *yobu*, *jabu* nomli qabila mavjud. *Jobi* to'p mazkur qabilaga mansub kishilarga guruhiga nisbatan qo'llangan. N.Begaliyev va A.Turobovlar o'z kitoblarida quyidagi ma'lumotni keltiradi: Ubaydullaxon qalamiga mansub quyidagi tuyuq yobularning So'g'dagi mavqei haqidadir:

*Sug'd ichida o'tururlar yobular,*

*Yobularning mingan oti yobilar.*

*Yobularning ilkidan el tinmadi,*

*Yobular tursin bu elda, yo bular.*

2. *Kal to'p* Qo'ng'iroq qabilasining Qo'shtamg'ali urug'iga mansub *Kal* oilasidir. *Kal* bo'g'ini tubandagi oilachalarga bo'linadi: Began-kal, Qoraxol, Besh-kaltak, Mayda-kal, Sopibachcha, Tentak, Oylachapar. Qo'ng'iroq qabilasining oyinni urug'ida ham *kal* oilasi bor (Norboyev, 1997:20-26).

3. *Mitan to'p* hozirgi paytda 92 bovli o'zbek elining eng qadimgi qabilalaridan biri bo'lib, qadimgi massagetlar avlodlari ekanligi qayt etiladi. R.G.Kuzeyevning (1979) yozishicha, *-an* qo'shimchasi Sirdaryo, Orol bo'yidagi xalqlarning eron tili asosida o'zaro ta'siri natijasida kelib chiqqan.

4. *Qashqa to'p* hozircha shu nomli etnonim lug'atlarda uchramadi. Xalq etimologiyasi nuqtai nazaridan bu nom ham antropofizologik ko'rinishdan kelib chiqib nomlangan.

5. *Tulki to'p* qo'ng'iroq qabilasining tortuvli urug'ida *tulkichi* (cho'poq) oilasi qayd etilgan.

6. *Chala to'p* mang'it qabilasining bir urug'i "oq", ikkinchisi esa "chala" deb nomlangan [T.Nafasov, 113-114; S.Qorayev-1, 76]. Mang'itlar — Buxoro amirligini boshqargan o'zbek sulola (1756—1920) vakillari mang'it urug'iga mansub bo'lganlar. Uzoq davom etgan o'zaro ichki nizolar tufayli Samarqand iqtisodiy inqirozga yuz tutgan paytda shaharni tiklashga birinchi urinishlar 18-asrning o'rtalarida Mang'itlar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan. Qo'ng'iroq qabilasining qonjig'ali urug'ida chala nomli urug' ham qayd etiladi (Norboyev, 1997:26).

Yuqorida qayd etilgan mikroetnoykonimlar strukturaviy jihatdan **ikki o'zakdan**, leksik-semantik xususiyatiga ko'ra, **ot+topoleksema** shakliga ega.

Qishloq ahlining o'zaro axborot almashunivida quyidagi tabiiy-jo'g'rofiy toponimlar tez-tez qo'llanadi:

### 1. Geografik joylashuvni ifodalovchi mikrooykonim.

- 1.1. *Etak* topoleksemasi qishloqning shimoliy-g'arbiy chekka tomonini anglatish uchun qo'llanadi.
- 1.2. *Jo'g'ori* topoleksemasi adabiy tildagi "yuqori" so'zining sheva varianti.
- 1.3. *Etaki jar* mikrotoponimi uch komponentli bo'lib, qishloqning quyosh botadigan tomonda joylashgan jarlikka nisbatan qo'llaniladi.
- 1.4. *Kamar* mikrotoponimi "pastlik yerni o'rab turuvchi qirlar, qirdagi uzun cho'zilgan do'nklar"(G'ulomov, 1994:56).

### 2. Landshaft tuzilishiga bog'langan mikrooykonimlar.

- 1.5. *Beshtaram* topoleksemasi "besh" va "taram" komponentlaridan tashkil topgan. Bug'doy ekiladigan qirlikning besh barmoq shaklidagi qismiga nisbatan qo'llanadi.
- 1.6. *Qurisoq* topoleksemasi "*quruq*" va "*soy*" komponentlaridan tashkil topgan bo'lib, gidronimning dastlabki uzvida "q" tovush tushish hodisasi voqe bo'lgan.

### 3. Ob'yektning makoni bilan bog'langan mikrooykonimlar.

- 1.7. *Ko'na qishloq* topoleksemasi "ko'hna, eski" so'zining dialektga xos ko'rinishidir. Mazkur joy qishloq ahlining ajdodlari yashagan hududga nisbatan qo'llanadi. Yaqin zamonlargacha qadimgi aholi yashash binolarining ayrim qismlari "ochiq osmon ostidagi muzey" kabi saqlanib turar edi. Ayni zamonda aholi tomonidan ushbu joy qayta o'zlashtirilib, aholi tomorqa, hovlilariga aylantirilgan.
- 1.8. *O'rta bo'z* mikrotoponimi ikki komponentli bo'lib, qishloqning markaziy qismida joylashgan qo'riq yer, haydalmagan yerni ifodalash uchun qo'llanadi.

### 4. Mikrozooponimlar.

- 4.1. *Tulki soy* yoxud *ko'pkari jay* nomlari bilan bir makonni nomlanishida tarixiy ketma-ketlik qoidasiga amal qilinadi, ya'ni dastlab ushbu joyda tulki uyalari ko'p bo'lgan, shu vajdan "tulki soy" deb nomlangan. Yaqin o'tmishda qishloq xalqi o'g'il farzandlari uchun sunnat to'yi qilganda, mazkur marosimning bir qismi xalq oyini sanalmish "ko'pkari" bo'lgan. Ko'pkari o'tkaziladigan joy keyinchalik "ko'pkari jay" deb nomlangan.
- 4.2. *Jayraxona* – qishloqdagi *soynoq jog'a* mikrotoponimidan yuqoriroqda joylashgan makonni ifodalaydi. Ushbu zooponimdagi "xona" komponenti "hudud, makon" semasini ifoda etadi.
- 4.3. *Qo'y g'o'ra* – yaqin o'tmishda jamoa xo'jaligiga qarashli mayda shoxli chorva mollari saqlanadigan manzilni ifoda etuvchi ikki komponentli mikrotoponim.
- 4.4. *Podajatoq* – kunduzning o'rtasida qishloq ahli chorva mollari poda tarzida vaqtinchalik saqlanigan manzilni ifodalovchi ikki komponentli toponim bo'lib, ikkinchi komponent "yotoq" leksemasining shevaga xos qo'llanishidir.

## 5. Mikrogidronimlar.

- 5.1. *Saynoq* qishloqdan o'qib o'tuvchi ikki leksik komponentdan tashkil topgan suv irmog'ining mahalliy nomlanishi.
- 5.2. **Ravish birikmali gidronimlar.** *Ko'pti hovuz* nomli gidronim "ko'na qishloq" makoniga tutash yerda joylashgan. "Ko'pti" aslida "*ko'pning*" dialektidagi shakli sanaladi. Demak, mazkur hovuz umum qishloq ahli tomonidan yaratilib, barcha emin-erkin foydalana olgan. Ushbu nomdan bilvosita anglash mumkin-ki, qishloq ahlining ayrimlarida xususiy hovuzlar ham bo'lgan. Masalan, *Zoyir boboni hovuzi*, *Usta Burxon hovuzi* va hok.
- 5.3. **Mikroantropogidronimlar.** *Begmatbovani artezani* gidronimi kabi qishloqda bir qancha sun'iy suv chiqarish nuqtalari bor. Aslida artezianlar budjed mablag'lari hisobidan bunyod etilib, muayyan kishilarga birlashtirilib berilgan. Natijada, kishilar nomi – antropogidronimlar paydo bo'lgan.
- 5.4. **Mikrogidrooykonimlar.**
- 5.4.1. *Saynoqjog'a* – qishloqdan o'qib o'tuvchi Oqsoyning mahalliy tildagi *soynoq* variant va "yoqa, yon" leksemalarining dialiktdagi *jog'a* shaklining o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan. *Saynoqjog'a* – soyning ikki yonidagi makonlarni ifodalash uchun qo'llanadi.
- 5.4.2. *Beshtom ariq* – beshta uy yonidan o'tuvchi suv tarmog'ini ifoda etadi. Ishbu vaziyatda gidronim oykonimga aylangan.

## 6. Mikroagrotoponimlar.

- 6.1. **Son + topoleksema strukturali agrotoponimlar.** *3,5,6,11,14, 18 gektar* toponimlar agronimlar sanaladi. Qishloq ahli asosan uzumchilik xo'jalik faoliyati bilan band bo'lib kelgan. Muayyan o'lchamdagi tokzorlar mos ravishda *uch gektar*, *besh gektar* va hokazo nomlar bilan farqlanib, muayyan makonni anglatib turgan.
- 6.2. **Son + fitonim strukturali agrotoponimlar.** *11 soyaki* nomidan ham anglashinib turilibdiki, ushbu nom ostidagi uzumzorda faqat uzumning *soyaki* navi mavjud va u besh gektardan iborat. Xuddi shunday *5 soyaki*, *5 husayni* agronimlari ham mavjud
- 6.3. *2-brigada shiyponi* mikrooykonimi tarixiy nom hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining davlat tomonidan boshqaruv tizimida uzumzorlar ma'lum bir raqam ostidagi ishchi brigadalarga birlashtirilgan va ishchilar hordiq chiqarishi uchun qurilgan yozgi inshootdir. Keyinchalik, davlat xo'jaliklari tarqalgach, shiyponlar ma'lum bir ishchilarga birlashtirilib berildi, natijada o'sha kishilar nomi bilan nomlana boshladi. Masalan, *Sherbobob akani shiyponi* va hok.
- 6.4. *Xirmon joy* – ikki komponentli mikrotoponim bo'lib, jamoa tarzida aholi tomonidan yetishtirilgan uzum mahsulotlarini ochiq osmon ostida quritiladigan manzilni ifodalaydi.
- 6.5. *Tegirmon boshi* – uch komponentli mazkur mikrotoponim qadimda tegirmon joylashgan manzil atrofni anglatish uchun qo'llanilgan.

7. **Mikroantropooykonimlar.** *Hasanobod* antropomikrooykonimi Hasan ismli kishi tomonidan qarovsiz yer maydonining foydalanishga kiritilishi va u kishining farzandlari istiqomat qiluvchi makonni anglatadi.

## 8. Mikrofitooykonimlar.

- 8.1. *Arpapoya* fitooykonimi ikki komponentdan tashkil topib, "arpa ekilgan yer, maydon"[O'TIL-1, 101]ni anglatadi. Mazkur makonda keyinchalik uzum bog'lari va aholi uylari barpo etilsada o'zining ilk nomini saqlab kelmoqda. Ushbu yerda yaratilgan uzumzorlar ma'lum bir raqamli gektar nomlarini olmagani.

- 8.2. *Olchazor* fitotoponimi ot so‘z turkumiga oid o‘zak + topoformant tuzlishiga ega.
- 8.3. *Uzumzor* – dastlab bekatga berilgan nom, keyinchalik uning atrofidagi aholi yashash manzilini ifoda etgan ikki komponentli fitooykonim.
- 8.4. Tut daraxti ham mevasi ham ipak yetishtirishda asosiy ozuqa manbai maqomidan kelib chiqib, qolaversa chorvachilik, hunarmandchilik kabi xo‘jalik ishlarida keng qo‘llanilganligi uchun mahalliy aholi tomonidan alohida e‘zozlanib kelinadi. Qishloqda *tut* leksemasi komponent vazifasidagi bir qancha mikrotoponimlar mavjud. Masalan, *Tutzor*, *3 gektar tut*, *Gala tut*

### 1. Mikroagionimlar va nekronimlar.

- 1.1. *Oqtosh ota* – dindor kishining qabri joylashgan hudud atrofini anglatadi. Qabr ustidagi oq rangli tosh toponim yasalishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Ota leksemasi marhumning erkak jinsli ekanligi va mo‘tabar shaxsligiga ishora qiladi. Aholi mazkur qabr toshi ustidan kichik hajmli idishda suv oqizib olib, ushbu suvni ko‘k yo‘tal nomli xastalikka chalingan yosh bolalarga davo sifatida ichirishadi.
- 1.2. *Shayit* mikrotoponimini ifodalovchi so‘z aslida *shahid* bo‘lib, din va adolat yo‘lida o‘ldirilgan mazlum kishini ifodalash uchun qo‘llaniladi va islom dinida shahidlar ulug‘lanadi. Ushbu vaziyatda ushbu mikrotoponim muayyan manzilli nuqtani ifoda etadi.
- 1.3. *Azlartaxta* mikrotoponimi *azizlar* va *taxta* leksemalari birikuvidan hosil bo‘lgan. Xalq etimologiyasiga ko‘ra, mazkur joyda dindor, mo‘tabar kishi dafn etilgan. Birinchi komponent - *azlar* so‘zi aslida “*azizlar*”, ikkinchi komponent *taxta* emas, balkim “*taxti*” so‘zidir. Qabrlar joylash mazkur joyning shakli eng yaqin atrofdagi landshaftga nisbatan balandroq va “*taxt*” shakliga o‘xshashidir.
- 1.4. *Qabriston* mikronekronimi ot so‘z turkumiga mansub o‘zagi va topoformant tuzlishiga ega.
2. **Mikrooronimlar.** Qiyqim qishlog‘ida bitta oronim ob‘yekti - *To‘ba* mikrooronimi geografik terminning dialektida qo‘llangan shaklidir.

*Xotin qochdi* mikrotoponimi lingvomadaniy belgiga ega bo‘lib, qishloq ahli yashaydigan hududdan olisroqda, bahorgi sayllar tashkil etiladigan joyga nisbatan hazilomuz qo‘llanadi.

### XULOSA

Qiyqim qishlog‘iga oid mikrotoponimlar o‘rganishidan xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy toponimlar miqdori tabiiy-geografik toponimlarga nisbatan ko‘proq. Qayd etilgan ayrim mikrotoponimlar hozirgi yosh avlod xotirasida mavjud emas, ya‘ni vaqt o‘tishi bilan mikrotoponimlar unitilmoqda. Qishloq ahlining asosan uzumchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi, tabiiy-geografik landshaft jarlik, bo‘z yer, suv irmoqlari, tokzor, bog‘lardan tashkil topgani hamda qishloqning vujudga kelishi haqida axborotlarga ega bo‘lamiz.

Yuqorida qayd qilingan Qiyqim qishlog‘idagi toponimlarni miqdoriy va tuzilishi haqidagi axborotlarni tubandagi jadval shaklida yanada aniqroq ifodalash mumkin:

**1-jadval Mikrotoponimlarning miqdoriy ko‘rsatgichi**

|                     | Bir o‘zakli | Ikki o‘zakli | Uch o‘zakli |
|---------------------|-------------|--------------|-------------|
| Etnooykonimlar      | 6           |              |             |
| Antropooykonimlar   |             | 2            |             |
| Agronimlar          | 1           | 1            | 1           |
| Nekronimlar         |             | 1            |             |
| Abstrakt oykonimlar |             |              |             |
| Oronimlar           | 2           | 2            |             |

|                |   |           |   |
|----------------|---|-----------|---|
| Gidronimlar    | 1 | 3         | 2 |
| fitooykonimlar | 3 | <b>11</b> | 1 |
| zoogidronim    |   | 1         |   |
| agronim        |   | 3         | 1 |
| zoooykonim     |   | 3         |   |
| xronooykonim   |   | <b>1</b>  |   |
| direktivoronim | 2 |           |   |

Yuqorida Qiyqim qishlogi misolida mikrotoponimlarni strukturaviy va leksik-semantik tahlilini korib chiqdik. Olingan natijalardan ma'lum bo'ladiki, lingvomadaniy jamoa joyga nom berishda etnotoponim va fito- va agrotoponimlarga ko'proq urg'u bergan. Fito- va agrotoponimlar qishloq ahlining xo'jalik faoliyati bilan bog'langan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати (мактаб ўқувчилари учун). – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
3. Қораев С. Топонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006.
4. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988.
5. Туробов А. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004.
6. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. - Тошкент: Фан, 1996.
7. Akramovna, K. M., & Nusratullayevich, T. B. (2020). Classification of Sciences in the Works of Abu Raykhan Beruniy. *Open Journal of Philosophy*, 10(03), 411.
8. Nasilov, D. M., Isxakova, X. O. R. S. H. I. D., Safarov, Š., & Nevskaya, I. A. (2001). Imperative sentences in Turkic languages.